

## О‘YIN TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DO‘STONA MUNOSABAT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani 50-sonli

Davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti

direktor o‘rinbosari

Ataboyeva Xurriyat Azamjonovna

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda do‘stona munosabat ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yin texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. O‘yin faoliyati orqali bolalarda hamkorlik, o‘zaro yordam, tinglash va hissiy anglash kabi ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanishi ta‘kidlanadi. Ilmiy tahlil natijalariga ko‘ra, rolli va ijodiy o‘yinlar orqali bolalarning emotsional barqarorligi, empatiyasi hamda muloqot madaniyati samarali shakllanadi. Shu bilan birga, pedagoglar tomonidan o‘yin jarayonini ilmiy asoslangan va maqsadga yo‘naltirilgan ravishda tashkil etish do‘stona muhit yaratishda muhim omil ekanligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘yin texnologiyalari, do‘stona munosabat, ijtimoiy ko‘nikmalar, empatiya, muloqot madaniyati, rolli o‘yin, hamkorlik.

### **Kirish**

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tizimida bolalarning nafaqat bilim olishi, balki ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi, hamkorlik, do‘stlik va empatiya kabi xislatlarni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.<sup>1</sup> Zamonaviy pedagogik amaliyotda o‘yin texnologiyalari mazkur maqsadga erishishda eng samarali usul sifatida tan olingan.<sup>2</sup>

### **Asosiy qism**

<sup>1</sup> Makarenko A.S. Pedagogicheskaya poema. — Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1989.

<sup>2</sup> Vigotskiy L.S. Igra i yeyo rol v psixicheskom razvitii rebyonka. — M.: Pedagogika, 1966.

O‘yin texnologiyalari bolalarning tabiiy faollik ehtiyojini qondirib, ularni ijtimoiy tajribaga tadrijiy ravishda kiritadi.<sup>3</sup> O‘yin jarayonida bolalar bir-birini tinglash, navbatni kutish, o‘zaro yordam berish, his-tuyg‘ularni anglash va boshqalarga ehtirom bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar.<sup>4</sup>

Psixologik nuqtai nazardan, o‘yin jarayoni orqali bolada empatik tafakkur, ijtimoiy adaptatsiya va muloqot kompetensiyasi shakllanadi. Pedagogik jihatdan esa, do‘stona muhitni yaratishda “rolli o‘yinlar”, “ijodiy-didaktik o‘yinlar”, “jamoaviy qidiruv o‘yinlari” kabi usullar yuqori samara beradi.

Bunday texnologiyalar bolalarda shaxsiy faollik, mas’uliyat va emotsional barqarorlikni rivojlantiradi. Masalan, “Mening do‘stim”, “Birgalikda qurolik”, “Yordamchi qo‘llar” kabi o‘yinlar orqali bolalar nafaqat o‘zaro do‘stona munosabat o‘rnatadilar, balki hamkorlik orqali muammolarni hal qilish ko‘nikmasini ham o‘zlashtiradilar.

## **O‘yin texnologiyalari orqali do‘stona munosabatni shakllantirish**

### **1. Metodik asoslar**

Bolalarda do‘stona munosabatni shakllantirishda o‘yin texnologiyalari muhim pedagogik vosita sifatida e’tirof etiladi. Bolalar o‘yin jarayonida muloqotga kiradi, hissiy munosabatni anglaydi, o‘z xulqini boshqarishni o‘rganadi. Bu jarayon Vigotskiy va Makarenko ta’limotlariga asoslanadi.

A.S. Makarenko ta’kidlaganidek: “Bola o‘yinda qanday bo‘lsa, katta bo‘lganda ham shunday bo‘ladi.” Bu fikrdan kelib chiqib, o‘yin faoliyati bolaning kelgusi ijtimoiy munosabatlariga asos soladi.

### **2. O‘yin texnologiyalarini qo‘llashning maqsadi**

Bolalarda do‘stona munosabatni shakllantirish;Hamkorlik va bir-birini tinglash ko‘nikmasini rivojlantirish;Hissiy barqarorlik va empatiyani oshirish;Jamoadagi munosabatlarni ijobiy ruhda shakllantirish.

### **3. O‘yin turlari va ularni o‘tkazish metodikasi**

<sup>3</sup> G‘afforova T., Mavlonova R. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. — Toshkent: “Ilm ziyo”, 2020.

<sup>4</sup> Qurbonova G. Maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.

### 1. “Mening do‘stim” rolli o‘yini

Maqsad: bolalarda do‘stlik, yordam va samimiyat hissini rivojlantirish.

Jarayon: Tarbiyachi bolalarni juft-juft qilib bo‘ladi.

Har bir juft bir-birini "do‘sti" deb tanishtirib, u haqida yaxshi gap aytadi.

Masalan: “Bu mening do‘stim Aziza. U men bilan o‘ynaydi, chiroyli rasm chizadi.”

Natija: bolalarda boshqalarga mehr va fikr bildirish ko‘nikmasi shakllanadi.

### 2. “Birgalikda qurolik” ijodiy-didaktik o‘yini

Maqsad: hamkorlik va birgalikda ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Jarayon: Bolalar guruhlariga bo‘linadi. Har guruhdan "qurilishchi do‘stlar" jamoasi tashkil qilinadi. Kubik, konstruktor yordamida uy yoki shaharcha qurish topshirig‘i beriladi. Tarbiyachi bolalarni bir-biriga yordam berishga, kelishib ishlashga undaydi. Natija: bolalar jamoada ishlash va hamfikir bo‘lishni o‘rganadilar.

### 3. “Quvonch aylaylik” hissiy o‘yini

Maqsad: hissiy anglash va empatiyani kuchaytirish. Jarayon: Bolalar aylana bo‘lib turishadi. Tarbiyachi “Quvonch aylayman, menda shodlik bor!” deb qo‘shiq yoki she‘r aytadi. Har bir bola quvonchli holatni yuz ifodasi bilan ko‘rsatadi. Keyin guruhda “Qaysi holat seni xursand qildi?” savoli muhokama qilinadi.

Natija: bolalar o‘z his-tuyg‘ularini anglay oladi, boshqalarning holatini taniyotganini his etadi.

### 4. “Yordamchi qo‘llar” didaktik o‘yini

Maqsad: hamdardlik va yordam ko‘rsatishni rivojlantirish.

Jarayon: Tarbiyachi turli vaziyatlar aytadi (“Do‘sting qalamini yo‘qotdi”, “Bola yiqildi”, “Kimdir yig‘layapti”).

Bolalar bu holatda nima qilish lozimligini amalda ko‘rsatadilar.

Natija: bolalar hissiy munosabat va yordam ko‘rsatish qobiliyatini o‘rganadilar.

## 4. Pedagogik tavsiyalar

O‘yin jarayonida bolalarni rag‘batlantirish, lekin raqobat emas, hamkorlik muhitini yaratish lozim. Har bir o‘yindan so‘ng muhokama qismi bo‘lishi shart — bola

o‘z fikrini bildirishga o‘rganadi. Tarbiyachi o‘zi do‘stona munosabat namunasi bo‘lishi kerak: mehr, sabr, tinglash va quvnoq kayfiyat orqali. O‘yin jarayonida musiqa, rang va harakat elementlarini qo‘shish bolalarda ijodiy kayfiyat uyg‘otadi.

### **Xulosa**

O‘yin texnologiyalari maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning do‘stona munosabat ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali bolalarda ijtimoiy faollik, hissiy barqarorlik va muloqot madaniyati rivojlanadi. Pedagoglardan esa, o‘yin jarayonini ilmiy asoslangan, maqsadga yo‘naltirilgan va yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etish talab etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4312-sonli qarori. — T.: 2019.
2. G‘afforova T., Mavlonova R. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. — Toshkent: “Ilm ziyo”, 2020.
3. Qurbonova G. Maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2019.
5. Ochildiyeva M. O‘yin texnologiyalarining pedagogik ahamiyati. // “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali, №3, 2022. — 45–49-betlar.